SCIENCE PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

# Ijtimoiy-gumanitar fanlarning dolzarb muammolari

Jild 3, Son 12/1

2023

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I12.1Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

***№ 12/1 (3)-2023***

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

### ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**ТОШКЕНТ-2023**

**БОШ МУҲАРРИР:**

Исанова Феруза Тулқиновна

**ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:**

*07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:*

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Аброр – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

*08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:*

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакаров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

*09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:*

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликов Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Носирходжаева Гулнора Абдукаххаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

*10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Рахман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич –филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

*12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:*

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуротовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси

Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа октори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Тошкент давлат юридик университети.

*13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:*

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Тайланова Шохида Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент.

*19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Каримова Васила Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбаҳор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психологияси кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

*22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:*

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сеитов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

Содиқова Шоҳида Мархабоевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси

*23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР*

Назаров Насриддин Атақулович –сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич –сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

**ОАК Рўйхати**

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхати (Рўйхатга) киритилган.

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари** электрон журнали 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.
Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамият.

**Таҳририят манзили:**
Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com
Телеграм канал: https://t.me/scienceproblems_uz

***МУНДАРИЖА***

**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ**

*Елмуратов Икматулла Гайбуллаевич*
ҚОРАҚАЛПОҒИСТОНДАГИ БИРИНЧИ ТАДҚИҚОТ ИНСТИТУТИ ТАРИХИ (1931-1936 ЙИЛЛАР) ........ 12-18

*Qitaybekov Azizbek Kenesbek o'g'li*
QORAQALPOG'ISTONDA HAVO TRANSPORTINING SHAKLLANISHIDA "DOBROLET" AKSIYADORLIK JAMIYATINING O'RNI ........ 19-23

*Nawrizbaeva Nurjamal Qudaybergenovna*
QORAQALPOQLARNING GILAMCHILIGI BILAN BOG'LIQ BA'ZI MAROSIMLAR ........ 24-29

*Сайдуллаев Фаррух Умедулло ўғли*
МУҲАММАД ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ ЭТНОЛОГИК ВА ЭТНОГРАФИК ТАДҚИҚОТЛАРИ ........ 30-35

*Berdiqulov Mirolim Tugalvoyevich*
TO'DA-1 NEOLIT MAKONINING O'ZBEKISTON TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDAGI O'RNI ........ 36-40

*Olimjonova Gulida Olimjon qizi*
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA DAVLAT BOJXONA XIZMATI ORGANLARI FAOLIYATI .. 41-47

*O'ng'alov Lazizbek Amiriddin o'g'li*
NUROTA TOG' TIZMASINING TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISH TARIXI.. 48-53

*Rahmonov Faxriddin Shoymardonovich*
MILLIY DEHQONCHILIK MADANIYATINI ETNO-TARIXIY MANBALARDA AKS ETISHI (JANUBIY O'ZBEKISTON MISOLIDA) ........ 54-58

*Tilavboyev Muhammad*
JIZZAX VOHASIDA OT BILAN BOG'LIQ URF-ODATLAR VA MAROSIMLAR ........ 59-63

*To'xtaboyev Xurmatullo Shomirza o'g'li*
O'ZBEKISTON ILM-FANI RIVOJIDA FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETINING O'RNI (MUSTAQILLIK YILLARI MISOLIDA) ........ 64-68

*Рахматиллаев Хасанбой*
МАРКАЗИЙ ОСИЁНИНГ ҚАДИМГИ ДАВР ЭТНИК ТАРИХИНИ ЁРИТИШДАГИ АЙРИМ МУАММОЛИ МАСАЛАЛАР ВА УСУЛЛАРГА ДОИР ........ 69-74

*Qurbonova Manzila Boqiyevna*
BUXORO VOHASI MILLIY SHIRINLIKLARI VA ICHIMLIKLARI ........ 75-80

*Ravshanova Gulora*
QASHQADARYO VOHASIDA MUNTAZAM QUROLLI HARAKATLAR TA'MINOTI (XX-asrning 20-yillarida) ........ 81-85

*Зарипбаев Уснатдин Оракбаевич*
ИККИНЧИ ЖАҲОН УРУШИ ЙИЛЛАРИДА ҚОРАҚАЛПОЛҒИСТОН АССР ПРОКУРАТУРА ОРГАНЛАРИ ФАОЛИЯТИ ........ 86-90

*Baxronov Abdullo Haydar o'gli*
O'ZBEKISTONDA TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINI O'RGANISHDA XALQARO EKSPEDISIYALARINING O'RNI ........ 91-95

*Maxmatqulov Jasur Isroil o'g'li*
GIYOHVANDLIKKA QARSHI KURASH MAVZUSINING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI ........ 96-101

*Esanova Nilufar*
O'ZBEKISTON–TURKIYA HAMKORLIGI VA UNING NATIJASI (TO'QIMACHILIK SANOATI MISOLIDA) ........ 102-106

*Норбоев Сарвар Қахрамон ўғли*
АФРОСИЁБДАГИ СЎҒД МУДОФАА ДЕВОРИГА ОИД ТАДҚИҚОТЛАРНИНГ ЎРГАНИЛИШИ (XX АСРНИНГ 50–80-ЙИЛЛАРИ) ........ 107-111

*Эсонов Зиёдбек Юлдашевич*
ФАРҒОНА ВОДИЙСИ АҲОЛИСИ ТЎҚИМАЧИЛИК ҲУНАРМАНДЧИЛИГИ АНЪАНАЛАРИ ........ 112-117

*Tishabayeva Irodaxon Rasulovna*
1960-1970 YILLARDA O'ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI ........ 118-124

*To'xtamisheva Fotima Musurmonovna*
MUSTAQILLIK YILLARIDA QASHQADARYO VOHASI KASHTADO'ZLIGIDA O'ZGARISHLAR ........ 125-132

*Sattorov Nurbek*
SHIMOLIY BAQTRIYA VA ZARAFSHON MINTAQALARIDA DEHQONCHILIK VA CHORVACHILIK MADANIYATI SOHIBLARI ETNOMADANIY ALOQALARINING O'ZBEK XALQI ETNOGENEZI SHAKLLANISHIDAGI O'RNI ........ 133-138

*Hazratov Nurali Burxon ug'li*
QADIMGI KESH VILOYATI HUDUDIDAGI ARXEOLOGIK YODGORLIKLARINING O'RGANILISH TARIXIDAN ........ 139-144

*Mamatqulov Bekzod Sherozovich*
O'ZBEKISTONDA GAZ-OLTINGUGURT SANOATINING YUZAGA KELISHI VA UNING RIVOJLANISH TARIXI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA) ........ 145-149

*Berdiyev Jamshid*
VOHA JOY NOMLARINING SHAKLLANISHIDA ETNONIMLAR VA PATRONIMLARNING TUTGAN O'RNI ........ 150-155

*Djurakulov Sherzod Davronovich*
SAMARQAND VILOYATI HUDUDIDI TOSH DAVRI ARXEOLOGIYASINING O'RGANILISHI TARIXI ........ 156-161

*Қурбанова Дилрабо Шерипбоевна*
ПАРЛАМЕНТ ТАРИХИ ВА ТАРИХШУНОСЛИГИ ........ 162-172

*Зухриддин Болтаевич Жунаев*
ХОРАЗМДА РЕСПУБЛИКА ТУЗУМИ: ЮТУҚЛАР ВА МУАММОЛАР (1920-1924 йиллар) ........ 173-181

*Mamadiev Boxodir Bobojonivich*
QASHQADARYO MUZEYIDAGI NODIR OSTODON ........ 182-186

*Norqo‘chqarov Xushvaqt Eshnazarovich*
AFG‘ONISTONDA O‘ZBEK TILINING QONUNIY ASOSLANISHI, O‘ZBEKLAR IJTIMOIY-MADANIY HAYOTIDAGI O‘RNI (XX ASR – XXI ASR BOSHLARI) ........ 187-197

*Ибрагимов Рахмон Зиёдуллаевич*
ТОШКЕНТ ВОҲАСИ СЎНГГИ БРОНЗА ДАВРИ ТАРИХИ ТИЗИМИДА: ДАФН УДУМИ ВА МИГРАЦИЯ МАСАЛАЛАРИ ........ 198-203

*Азаматова Гулмира Байирбековна*
ОДАМ САВДОСИГА УЧРАГАН МИГРАНТ ХОТИН-ҚИЗЛАР ҲАҚИДА БАЪЗИ МУЛОҲАЗАЛАР ........ 204-208

*Tishabayeva Irodaxon Rasulovna*
1960-1970 YILLARDA O‘ZBEKISTONDA MAKTABGACHA TARBIYA MUASSASALARI FAOLIYATI ........ 209-215

## 08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ

*Ostonokulov Azamat Abdukarimovich, Inoyatov Mardonbek Mo‘min o‘g’li*
DAVLAT SEKTORIDA ICHKI AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ........ 216-226

*Kurbaniyazov Shaxzodbek Karimovich*
O‘ZBEKISTONDA KORPORATIV BOSHQARUV TASHKILIY- IQTISODIY MEXANIZMI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY VA USLUBIY ASOSLARI ........ 227-232

*Отабеков Отажон Ғайрат ўғли*
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ОПТИМАЛ СОЛИҚ ЮКИ ВА ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ МАСАЛАЛАРИ ........ 233-243

*Шакирова Фароғат Болтаевна*
ИННОВАЦИОН ИҚТИСОДИЁТНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА БАҲОЛАШ ИНДИКАТОРЛАРИНИНГ АҲАМИЯТИ ........ 244-255

*Мамбетназаров Бахыт Бисенбаевич*
ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИДА ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ........ 256-263

*Jumaniyazova Ro‘za Quvondiq qizi*
TURIZM INFRATUZILMASI TUSHUNCHASI VA UNING O‘ZIGA XOS JIHATLARI ........ 264-269

*Matniyozov Murodjon Rajabbayevich*
DESTINATSIYA IMIDJINI SHAKLLANTIRISHDA TURISTLARNING SODIQLIGI VA QONIQISHINING AHAMIYATI ........ 270-278

*Хамидова Зарифа Урол қизи*
ДАВЛАТ СЕКТОРИДА ИЧКИ АУДИТ ВА ДАВЛАТ МОЛИЯВИЙ НАЗОРАТ ТАДБИРЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 279-291

*Toshaliyeva Saodat Toxirovna*
KICHIK TADBIRKORLIK TUSHUNCHASI VA UNING IJTIMOIY-IQTISODIY MOHIYATI .... 292-296

*Худойназаров Фахритдин Хаитович*
ИБН ХАЛДУННИНГ ИҚТИСОДИЁТГА ТАВСИЯЛАРИ ........ 297-304

*Nurullayev Hoshimjon Hamidovich*
GASTRANOMIYANING TURIZM RIVOJLANISHIDAGI AHAMIYATI ........ 305-313

*Кадырова Шарофат Амоновна*
ЗАРУБЕЖНЫЙ ОПЫТ РАЗВИТИЯ СФЕРЫ УСЛУГ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ .... 314-323

*Бегматова Зиёда Захиджановна*
ДАВЛАТ ИНТЕРАКТИВ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИ АСОСИДА КАДРЛАР БАНДЛИГИНИ ВА УЛАРГА ТАЛАБНИ БАҲОЛАШ ........ 324-332

*Shafkarov Bakhrom Khudoyberdievich*
TERRITORIAL FEATURES AND THEIR EFFECTIVE USE IN THE CULTIVATION OF VITICULTURE PRODUCTS ........ 333-340

*Masharipova Fazilat Axmedovna*
OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA RAQAMLI IQTISODIYOTNING AHAMIYATI ........ 341-348

*Мусинов Дилшод Султанович*
ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНИНГИЖТИМОИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИГИИҚТИСОДИЙ ЎСИШ ОМИЛИ СИФАТИДА ........ 349-359

*Шакирова Юлдуз Сайдалиевна*
ВОПРОСЫ РАЗРАБОТКИ ДОРОЖНОЙ КАРТЫ АКТИВИЗАЦИИ ИННОВАЦИОННЫХ ПРОЦЕССОВ ........ 360-368

*Абдивохидов Мамуржон Авазхон ўғли*
РАҚАМЛИ ИҚТИСОДИЁТ ШАРОИТИДА ХИЗМАТ КЎРСАТИШ СОҲАСИНИНГ МАЗМУНИ, ТАВСИФИ ВА РИВОЖЛАНТИРИШ ЙЎНАЛИШЛАРИ ........ 369-380

*To'xtasinova Mиxayyo Mirzasultonovna*
DAVLATNING INNOVATSION TIZIMINI SHAKLLANTIRISH MASALASIGA ........ 381-388

*Курбанова Рахима Джамшедовна, Мирзаева Ширин Нодировна*
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В СТИМУЛИРОВАНИИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 389-403

*Набиева Нилуфар Муратовна*
ОСОБЕННОСТИ КОМПЛЕКСА МАРКЕТИНГОВОГО ПРОДВИЖЕНИЯ КОМПАНИИ В ЦИФРОВОЙ СРЕДЕ ........ 404-416

*Safarov Radjabboy Eshmixammadovich*
KAMBAG‘ALLIKNI QISQARTIRISHDA INDIVIDUAL DAROMADGA SOLIQLAR MEXANIZMIDAN SAMARALI FOYDALANISH MASALALARI ........ 417-428

*Sharipova Zulayho*
SANOAT TARMOQLARI KLASTERLARINI RIVOJLANTIRISH VA SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO‘LLARI ........ 429-434

*Шарипов Акбар Илхамович*
ЧАКАНА САВДО КОРХОНАЛАРИНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА РАҚАМЛИ МАРКЕТИНГНИ РОЛИ ........ 435-440

*Хаджаев Хабибулла Сагдуллаевич*
ОБЪЕКТИВНАЯ НЕОБХОДИМОСТЬ И ЭКОНОМИЧЕСКАЯ СУЩНОСТЬ АНТИМОНОПОЛЬНОЙ ПОЛИТИКИ В РАЗВИТИИ НАЦИОНАЛЬНОЙ ЭКОНОМИКИ . 441-447

*Xamzayeva Dilfuza Samarovna*
SURXANDARYO VILOYATIDA TURISTIK MAHSULOTLARNI BAHOLASH VA SAMARALI RIVOJLATIRISH IMKONIYATLARI ........ 448-452

*Усманова Насиба Акбаржоновна*
ПУТИ РАЗВИТИЯ МЕНЕДЖМЕНТА В СФЕРЕ УСЛУГ ........ 453-459

*Исхакова Сарвар Аюбовна*
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ И ЕЕ ВЛИЯНИЕ НА ЗАНЯТОСТЬ И КВАЛИФИКАЦИЮ ПЕРСОНАЛА В СФЕРЕ БЫТОВОГО ОБСЛУЖИВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ ........ 460-467

*Ollanazarov Bekmurod Davlatmuratovich*
INNOVATSION TADBIRKORLIKNI MOLIYALASHTIRISHDA MUQOBIL MOLIYALASHTIRISH VOSITALARIDAN FOYDALANISH VA UNI TURISTIK XIZMATLAR SOHASIDA QO‘LLASH IMKONIYATLARI ........ 468-479

*To‘ychiyeva Nodira G‘ulom qizi*
OLIY TA'LIMNI BOSHQARISHDAGI INNOVATSIYALAR. CHAT GPT YOHUD SUN’IY INTELLEKT ........ 480-485

*Абдураҳимова Саида Аҳмаджановна, Адилова Гўзал Абзаловна*
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА КИЧИК БИЗНЕС СУБЪЕКТЛАРИ ТАРКИБИЙ ҚИСМЛАРИНИНГ БАРҚАРОР РИВОЖЛАНИШ ТАҲЛИЛИ ........ 486-494

*Maxsudov Sherzod Solijonovich*
TO‘QIMACHILIK SANOATI KORXONALARIDA INVESTITSION MUHIT JOZIBADORLIGINI BOSHQARISHNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI ........ 495-500

*Tadjibekova Dilnoza Bakhtiyarovna*
ENHANCING FINANCIAL RESOURCE FORMATION IN BUSINESSES ........ 501-506

*Radjabova Malika Ziyodullayevna*
AHOLI BANDLIGINI TA’MINLASH ISTIQBOLLARI XUSUSIDA ........ 507-512

## ***09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ***

*Asraqulova Adiba Nabiyevna*
ZAMONAVIY DAVRDA IQTISODGA FALSAFIY QARASHLAR ....................513-520

*Жўраев Аҳмад Муҳаммадиевич*
ТИНЧЛИКПАРВАРЛИК ҒОЯЛАРИНИНГ ЖАМИЯТ ТАРАҚҚИЁТИДАГИ АҲАМИЯТИ ....................521-530

*Гуламова Мавжуда Ташпулатовна*
АХМАД ЗИЁУДДИН АЛ-КУМУШХОНАВИЙ АСАРЛАРИДА КОМИЛ ИНСОН ҒОЯЛАРИНИНГ ФАЛСАФИЙ ТАҲЛИЛИ ....................531-538

*Abduxolikova Nasiba Alijonovna*
YOSHLARNING ONLAYN TA’LIM JARAYONIGA TA’SIR ETUVCHI IJOBIY SALBIY OMILLAR ....................539-544

*Yazdonov Zikirillo Shukurilloyevich*
QALANDARIYLIK VA UNING INSON, JAMIYAT TIZIMIDAGI O’RNI ....................545-552

*Sharipova Barno Salimovna*
BIOETIK MADANIYATNING RIVOJLANISH BOSQICHLARI VA UNING ZAMONAVIY IMIJI ....................553-558

*Xalikulova Umida Rustamovna*
AXBOROT MUHITINING OLIY TA’LIMGA TA’SIRI: KONSTRUKTIV VA DESTRUKTIV OMILLAR ....................559-564

*Abbasova Maftuna Subxonovna, Temirova Xurshida*
OILA VA NIKOH MA’NAVIYATI, OILANI MUSTAHKAMLASH OMILLARI ....................565-571

*Togʻayev Nodirjon Ergashevich*
AJDODLARIMIZ BOY ILMIY MEROSINING OʻZBEKISTONDA MA’RIFATLI JAMIYAT QURISH HAMDA YOSHLAR TARBIYASIDA TUTGAN OʻRNI ....................572-576

*Kipchoqov Xomidjon Gulomovich*
JAVOBGARLIK PRINSIPINI SHAKLLANTIRISH AXLOQSHUNOSLIKNING ASOSIY MASALASI SIFATIDA ....................577-581

*Raximova Rayxon Abdurasulovna*
ZAMONAVIY OILADA MA’NAVIY-AXLOQIY QADRIYATLARNI SHAKLLANTIRISH: MUAMMONING NAZARIY VA USLUBIY TAHLILI ....................582-586

*Агзамова Нилюфар Шухратовна*
“АДАБ АЛЬ-ТАБИБ” КАК ИСТОЧНИК НАЦИОНАЛЬНОЙ БИОЭТИКИ ....................587-591

*Axmadiyev Nuriddin Muxutdinovich*
INTELLEKTUAL MADANIYAT YOSHLARNING INNOVATSION FAOLLIGINI OSHIRISHNING MUHIM MEZONI SIFATIDA ....................592-596

*Nabiyev Mansur Jamxur oʻgʻli*
DEMOKRATIK JAMIYAT TARAQQIYOTIDA IJTIMOIY GʻOYALAR EVOLYUTSIYASI VA MODERNIZATSIYASI ....................597-603

*Kenjayeva Dilrabo Romanovna, Xaydarova Larisa Sunnatovna*
GLOBALLASHUV SHAROITIDA MILLIY MADANIYAT SOHASIDAGI O'ZGARISHLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI ........ 604-609

*Abduraximova Tursunoy Abduvoxid qizi*
O'ZBEKISTONDA OLIY TA'LIM TRANSFORMATSIYASINING FALSAFIY MOHIYATI ........ 610-615

*Tagayev Ganisher Xasanovich*
YOSHLAR ETNOESTETIK DUNYOQARASHINI RIVOJLANTIRISHDA BADIIY-ESTETIK OMILLARNING O'RNI ........ 616-625

*Шоназаров Жамшид Шуҳратович*
БЕҲБУДИЙ ВА УНИНГ ДАВЛАТЧИЛИК ҒОЯСИ ........ 626-630

*Ҳамраев Сирож Абруевич*
ЖАМИЯТ ЯНГИЛАНИШИ ВА ТАДБИРКОР МАЪНАВИЯТИ ........ 631-637

*Nabiyev Bekzod Muxammadumarovich*
MAFKURAVIY ISHLARNI TASHKIL ETISHDA ZAMONAVIY TARG'IBOT TEXNOLOGIYALARI: O'ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI ........ 638-642

*Hashimova Gulsina Ismoyilovna*
HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TA'MINLASHDAGI ROLI ........ 643-648

*Karimova Gulnoza Yigitaliyevna*
AXLOQIY MADANIYAT TUSHUNCHASINI RIVOJLANTIRISHNING IJTIMOIY ZARURIYATI ........ 649-655

*Sharipova Kamola Usmonjonovna*
YANGI O'ZBEKISTONDA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASH BO'YICHA ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASINI MILLIY STRATEGIYAGA TRANSFORMASIYALASH ISTIQBOLLARI ........ 656-661

*09.00.00- Фалсафа фанлари*

**Hashimova Gulsina Ismoyilovna,**
Katta oʻqituvchi, Fargʻona davlat universiteti

## HARBIY IJTIMOIY ISH VA HARBIY MADANIYATNING HARBIY XIZMATCHILAR FAROVONLIGINI TAʼMINLASHDAGI ROLI

**Annotatsiya.** “Vatan himoyasi” tushunchasining milliy va maʼnaviy qadriyatlar bilan aloqadorligi, yoshlarning mudofaaviy ong va madaniyatini yanada yuksaltirish davlat siyosatining ustuvor yoʻnalishlari qatoriga kirganligi, milliy istiqlol gʻoyasining asosiy tushuncha va tamoyillariga asoslangan holda mudofaaviy madaniyatga yangicha qarash va yondoshuvlar shakllanayotganligi maqolada alohida koʻrsatib oʻtiladi. Respublikamizda harbiy xizmatchilarning hushyorligini oshirish, mustahkam iroda, hayotiy va professional koʻnikmalarni ularning ongiga singdirish, ichki hamda tashqi tahdidlarga qarshi immunitetni mustahkamlash, buning uchun esa, qoʻshinlarda sogʻlom maʼnaviy-axloqiy muhitni qaror toptirish, tarbiyaviy va taʼlimiy ishlar samaradorligini, taʼsirchanligini oshirish har qachongidan ham muhim ekanligi haqida fikr yuritiladi.

**Kalit soʻzlar**: harbiy qadriyatlar, harbiy ijtimoiy ish, harbiy madaniyat, harbiy marosim, harbiy doʻstlik, ijtimoiy masala.

**Khashimova Gulsina Ismailovna,**
Senior lecturer, Ferghana State University

## THE ROLE OF MILITARY SOCIAL WORK AND MILITARY CULTURE IN IMPROVING THE WELL-BEING OF SERVICEMEN

**Abstract.** The article shows that the concept of "protection of the Fatherland" is associated with national and spiritual values, that further improvement of the defense consciousness and culture of youth is one of the priorities of state policy, that a new view and approach to defense culture is formed on the basis of the basic concepts and principles of the idea of national independence. In our republic, it is more important than ever to increase the vigilance of military personnel, to educate in their minds a firm will, vital and professional qualities, to strengthen immunity against internal and external threats, and for this to establish a healthy moral and ethical environment in the troops, to increase the efficiency and effectiveness of educational and educational work.

**Keywords:** military values, military social work, military culture, military ritual, military friendship, social issues

**Хашимова Гулсина Исмаиловна,**
старший преподаватель
Ферганский государственный университет

## РОЛЬ ВОЕННО-СОЦИАЛЬНОЙ РАБОТЫ И ВОЕННОЙ КУЛЬТУРЫ В ПОВЫШЕНИИ БЛАГОСОСТОЯНИЯ ВОЕННОСЛУЖАЩИХ

**Аннотация.** В статье показано, что понятие «защита Отечества» связано с natsionальными и духовными ценностями, что дальнейшее повышение оборонного сознания и культуры молодежи является одним из приоритетов государственной политики, что новый взгляд и подход к оборонная культура формируется на основе основных понятий и принципов идеи natsionальной независимости. В нашей республике как никогда важно повышать бдительность военнослужащих, воспитывать в их сознании твердую волю, жизненные и профессиональные качества, укреплять иммунитет против внутренних и внешних угроз, а для этого устанавливать здоровый нравственный и этической среды в войсках, повысить эффективность и результативность воспитательной и воспитательной работы.

**Ключевые слова:** воинские ценности, военно-социальная работа, военная культура, военный обряд, воинская дружба, социальная проблематика.

DOI: https://doi.org/10.47390/SP1342V3I12.1Y2023N89

**Kirish.** Jahonda global miqyosda shiddatli oʻzgarishlar yuz berayotgan, xalqaro maydonda kuchlarning yangi nisbati shakllanayotgan bir sharoitda yangi tahlikalar paydo boʻlmoqda, bu holat dunyo mamlakatlarini yuzaga kelayotgan muammolarga munosib yechim topish, siyosiy va iqtisodiy strategiyalarni yangilashga majbur qilmoqda. Insoniyat duch kelayotgan koʻplab muammolarni, mamlakatda tinchlik, xavfsizlikni taʼminlash, ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashish, iqlim oʻzgarishining salbiy taʼsirini kamaytirish, pandemiya va boshqa tabiiy ofatlar bilan kurashish kabi muammolarni hal etish jarayonlariga armiyani faol jalb qilishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqib, har bir mamlakat oʻzining harbiy ijtimoiy sohasini, ham maʼnaviy, ham iqtisodiy jihatdan rivojlantirishga alohida eʼtibor qaratib, mamlakat xarajatlarining asosiy qismini shu sohaga yoʻnaltirmoqda.

Dunyoda mamlakat mudofaasining asosiy koʻrsatkichi haqiqiy vatanparvar, maʼnan yetuk, tajribasi va bilimini Vatanga baxshida etuvchi avlodni shakllantirish, davlat boshqaruvining yuksak samaradorligi, harbiy sanoatning toʻgʻri strategiyasi, zamonaviy qurol va texnikalar ishlab chiqarish bilan izohlanadi. Hozirgi sharoitdan kelib chiqib, barcha mamlakatlar harbiy sohani rivojlantirishning zamonaviy mexanizmlarini ishlab chiqishga katta eʼtibor qaratmoqda.

Oʻzbekistonda soʻnggi yillarda harbiy sohaga munosabat tubdan oʻzgardi. Harbiy sohani isloh qilish, harbiy qoʻshinlarni har tomonlama rivojlantirishning tezkor mexanizmlarini ishlab chiqish, shaxsiy tarkibning maʼnaviy-ruhiy holatini yaxshilash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish strategik vazifalardan biriga aylandi.

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** Maʼlumki, vatanparvar — bu kishilarning ona yurtiga, oʻz oshyoniga muhabbati va sadoqatini ifodalaydigan tushunchadir. Vatanparvarlik barcha kishilar, xalq, millatlar uchun umumiy boʻlgan, asrlar davomida sayqallanib kelgan umuminsoniy tuygʻu, maʼnaviy qadriyatlardan biri. Tarixiy jihatdan Vatanparvarlik kishilarning oʻz vatanlari taqdiri bilan bogʻliq ijtimoiy rivojlanish, xalqlarning oʻzlari yashayotgan hududning daxlsizligi va mustaqilligi yoʻlidagi kurashi jarayonida takomillashib kelgan his-tuygʻular jamlanmasi hamdir. Bu vatanning oʻtmishi va hoziri bilan faxrlanishda, uning manfaatlarini himoya qilishda namoyon boʻladi. Vatanni sevish iymondandir deb ham bejizga aytishmagan. Vatanparvar insonlar vatanimizda juda ham koʻp uchraydi.

Bugungi kunda Oʻzbekiston jamiyatida dolzarb va muhim ahamiyatga ega muammolardan biri samarali ijtimoiy himoya va aholining turli qatlamlarini, shuningdek, harbiy xizmatchilar va ularning oila aʼzolarini qoʻllab-quvvatlash, ijtimoiy ishni rivojlantirish masalasidir. Buni muvaffaqiyatli hal etish uchun faoliyatning turli sohalaridagi mutaxassislar,

jumladan, ijtimoiy masalalarning turli nazariyalari hamda hal qilish usullarini egallagan professional ijtimoiy ishchilar kuchlarini birlashtirish zarur.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – millati, tili va kasbidan qat’i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg‘usini shakllantirish, ularni o‘z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va tashkilotlarining ko‘p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdan ko‘zlangan asosiy maqsad – yoshlarda jamiyatning turli tarmoqlari, ayniqsa, harbiy soha bilan aloqador bo‘lgan davlat xizmati turlarida faollik ko‘rsatish, tinch va harbiy sharoitda Konstitutsiya va harbiy burchga sadoqatli bo‘lish, ularda o‘z yurti va xalqi taqdiri uchun yuksak mas’uliyat va javobgarlik kabi muhim xususiyatlarni shakllantirishdan iborat.

Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda quyidagilar asosiy vazifalar etib belgilanadi:

yoshlarni milliy g‘oya va O‘zbekiston Respublikasiga, uning xalqi va Prezidentiga sadoqat ruhida tarbiyalash, ularning qalbi va ongiga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini chuqur singdirish;

qadimiy tariximiz va madaniyatimiz, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo‘lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib bo‘lish tuyg‘usini shakllantirish, milliy armiyamizning qudrati va salohiyatiga bo‘lgan ishonchni kuchaytirish;

milliy armiyamizga jismonan baquvvat va ma’nan yetuk yoshlar zarurligi, harbiy xizmat har bir O‘zbekiston fuqarosi uchun muqaddas burch ekani haqidagi tushuncha hamda bu boradagi nazariy-amaliy ko‘nikmalarni mustahkamlash;

yoshlarda yon-atrofimiz va jahonda ro‘y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlarimizdan kelib chiqqan holda yondashish ko‘nikmalarini, turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi mafkuraviy immunitetni shakllantirish;

jangovar harakatlarga moslashish, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy texnika vositalaridan samarali foydalanish malakasiga ega yoshlarni tarbiyalash;

O‘zbekiston manfaatlarini nafaqat harbiy sohada, balki hayotning barcha jabhalarida, har bir qadamda himoya qilishga tayyor turish, yurt uchun fidoiy bo‘lish – bu bugungi kun talabi ekanini hayotiy misollar va ta’sirchan vositalar bilan yoshlar ongiga singdirib borish.

Harbiy madaniyat, shuningdek, harbiy ijtimoiy ish qo‘shinlarning jangovar faoliyatini ma’naviy va psixologik qo‘llab-quvvatlashning eng muhim tarkibiy qismi bo‘lib, Qurolli Kuchlarning ijtimoiy-huquqiy rejimini ta’minlashga qaratilgan tashkiliy, huquqiy va tarbiyaviy chora-tadbirlar tizimidir. Harbiy ijtimoiy ish harbiy xizmatchilarning qonuniy huquqlarini himoya qilishga, ularning ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga, munosib ijtimoiy-huquqiy maqom va ijtimoiy-psixologik farovonlikni ta’minlashga qaratilgan. Bu vazifalarning hal etilishi harbiy xizmatchilarning fidokorona harbiy mehnatga psixologik tayyorgarligini ta’minlashning muhim shartidir.

Qurolli Kuchlarda tashkil etilgan harbiy ijtimoiy ish quyidagi masalalarni qamrab oladi:

— harbiy xizmatchilarning oʻz funksional majburiyatlarini toʻliq bajarishi, Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan barcha huquqiy va ijtimoiy kafolatlarga rioya qilish va amalga oshirish uchun ijtimoiy-huquqiy shart-sharoitlarni yaratish;

— harbiy xizmatchilar va ularning oila a’zolari duch keladigan ijtimoiy-huquqiy muammolarni hal qilish uchun hokimiyat va adliya organlari bilan oʻzaro hamkorlikni tashkil etish va amalga oshirish;

— barcha toifadagi harbiy xizmatchilar, fuqarolik xodimlari va ularning oila a’zolari uchun huquqiy ta’limni tashkil etish, tezkor ijtimoiy-huquqiy yordam koʻrsatishni amalga oshirish;

— shaxsiy tarkibga tinchlik va urush davridagi qonunlar, askarlarning huquq va majburiyatlarini tushuntirish, harbiy ijtimoiy normalar va ularning majburiyatlarini bajarish uchun shaxsiy javobgarlik tuygʻusini shakllantirish, ijtimoiy adolat tamoyilini amalga oshirishda zarur yordam va huquqiy himoyani ta’minlashdan iborat.

Qoʻmondonlik, tashkilotchilik, huquq-tartibot va harbiy intizom birligini mustahkamlash, ayniqsa, jangovar vazifalarni hal qilish jarayonida ijtimoiy ishchi, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiylashtirish, shuningdek, oʻzgaruvchan xizmat sharoitlariga moslashish bilan shugʻullanadi. Ijtimoiy ishchi harbiy xizmatchilar va ularning oilalari ehtiyojlariga muvofiq ijtimoiy muhitni oʻzgartirishga hissa qoʻshadi, shuningdek, harbiy xizmatchi va uning faoliyati ijtimoiy muhiti oʻrtasidagi munosabatlarni, madaniyatini tartibga soladi.

Harbiy ijtimoiy ish, harbiy madaniyat ijtimoiy-iqtisodiy asoslari toʻgʻrisida tushunchaga ega boʻlish, amaliy ijtimoiy ishning ilmiy maktablari va nazariy modellari toʻgʻrisida bilish imkonini beribgina qolmay, harbiy xizmatchilar va ularning oilalarini ijtimoiy himoyalash tizmi, xodimlarining bu faoliyat sohasidagi tasavvurlarini kengaytirish, ijtimoiy ishning harbiy amaliyotini kelgusida rivojlanish istiqbollarini aniqlash imkonini ham beradi. Bugungi kunda hayotning oʻzi ijtimoiy texnologiyalarni, ijtimoiy ishni tashkil etish va amalga oshirishda tushunarli va aniq usullarni ishlab chiqishni talab qilmoqda. Jahon tajribasi shundan dalolat beradiki, koʻpgina mamlakatlarda ijtimoiy xodimlar faoliyati, harbiy xizmatchilarni ma’naviy salohiyatini hisobga olmasdan ijtimoiy taraqqiyot dasturlari, davlatning harbiy ijtimoiy siyosati amalga oshmaydi.

Ma’naviyat esa jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti va shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlardan biri hisoblanadi. Chunki ma’naviyat rivojlangandagina jamiyatda iqtisodiy va ijtimoiy-siyosiy barqarorlik vujudga keladi, mamlakat va millat taraqqiy etadi. Bu oʻz navbatida shaxsning barkamol rivojlanishi uchun zarur boʻlgan zamin boʻlib xizmat qiladi. Bugungi kunda davlatimiz oldida “harbiy xizmatchilarning ong-u tafakkuriga Vatan himoyasi sharafli va muqaddas burch ekanini, milliy armiyamiz bilan faxrlanish, davlat xavfsizligini himoya qilish uchun mas’uliyat tuygʻusini chuqur singdirish, dunyoda va yon-atrofimizda sodir boʻlayotgan globallashuv jarayonlariga nisbatan ularda ongli munosabat, faol hayotiy pozitsiyasini shakllantirish, fidoyilik tuygʻularini oshirish” [1, 7] muhim vazifa boʻlib turibdi. Chunki bugun jahon maydonida ma’naviy salohiyat, aql-zakovat musobaqasi, insonlar qalbi va ongiga hukmron boʻlish uchun keskin kurashlar avj pallaga kirgan Tabiiyki, hech qaysi davlat, hech qaysi jamiyat bu jarayondan chetda emas. Hozirgi paytda xalqaro hayot, kishilik taraqqiyoti shunday bosqichga chiqdiki, endi unda harbiy qudrat emas, balki intellektual salohiyat, aql-idrok, fikr hal qiluvchi ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa, aqliy qudratning jismoniy

kuchdan ustunlikka erishganidan, endi muammo va ziddiyatlarga qarshi qurol-yarogʻ bilan emas, balki fikrga qarshi fikr, gʻoyaga qarshi gʻoya bilan kurashishga, eng asosiysi, milliy maʼnaviyatni asrab qolishga eʼtiborni kuchaytirish lozimligidan dalolatdir. Mana shunday tahlikali davrda harbiy xizmatchilarning hushyorligini oshirish, ularda mustahkam iroda, hayotiy va professional koʻnikmalarni, ichki va tashqi tahdidlarga qarshi immunitetni mustahkamlash, buning uchun esa, qoʻshinlarda sogʻlom maʼnaviy-axloqiy muhitni qaror toptirish, tarbiyaviy va taʼlimiy ishlar samaradorligini va taʼsirchanligini oshirish har qachongidan ham muhimdir. Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida maʼnaviy-maʼrifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasining asosiy maqsadlaridan biri sifatida “harbiy xizmatchilarga ezgulik va rahmdillik anʼanalarini singdirish, insonparvarlik va mehr-oqibat munosabatlarini shakllantirish hamda ularni milliy madaniyatimiz va qadriyatlarimizga hurmat va ehtirom, fidoyilik va sadoqat, halollik va poklik, sogʻlom turmush tarzi asosida tarbiyalash; harbiy xizmatchilarning estetik tarbiyasini kuchaytirish, ularning madaniyat va sanʼatning turli sohalariga boʻlgan qiziqishlarini oshirish”ni [1, 9] koʻrsatib oʻtilishi ham fikrimizning yaqqol dalilidir. Yuqoridagi fikrlar, bugungi kunda harbiy xizmatchilarga ijtimoiy xizmat koʻrsatishni yuksak darajaga olib chiqish, shuningdek, Qurolli Kuchlarimizdagi ijtimoiy ishni, madaniyatini, harbiy anʼanalarini oʻrganish va tahlil qilishning vaqti kelganligidan dalolatdir.

**Tahlil va natijalar.** Harbiy anʼanalar – bu mustahkam ijtimoiy munosabatlar koʻrinishida, oʻziga xos shakllar bilan askarlarning axloqiy qoidalari va meʼyorlari, ularni maʼnaviy qadriyatlari, axloqiy tarbiyalari va urf-odatlari, oʻquv, urush masalalarini avloddan avlodga yetkazib berilishidir [2, 107]. Harbiy anʼanalarda ham har bir avlod oʻzidan oldin boʻlgan harbiy mehnat va jamoat faoliyati jarayonida anʼanalarga xos muayyan harbiy-axloqiy xislatlarni oʻzlashtiradi. Oʻz navbatida harbiy anʼanalarning ahamiyati harbiy madaniyat vazifalari orqali aniqlanadi, chunki askarlar harbiy jamoa faoliyatida tarbiyalanadilar.

Davlatimizning harbiy madaniyati tarkibida shunday jangovar va mehnat anʼanalari ham borki, ular jamoatchilik va madaniy munosabatlarni rivojlantirishga, yosh avlodni bu shonli anʼanalarga sadoqat ruhida tarbiyalashga imkon yaratadi. Shuni alohida aytish mumkinki, harbiy anʼanalar oʻzgaruvchan boʻlib, ular hech qachon abadiy boʻlmaydi. Ular maʼlum bir tarixiy sharoitlarda vujudga kelib, rivojlanib boradi. Bu sharoitlarni oʻzgarishi yoki yoʻqolishi oʻz navbatida anʼanalarni ham oʻzgarishiga yoki yoʻqolib ketishiga olib keladi. Bunday vaziyatda ular oʻrniga boshqa, baʼzan mazmun jihatdan umuman qarama-qarshi boʻlgan anʼanalar kelishi mumkin.

Harbiy anʼanalarning shakllanishi turli davlatlarda har xil kechishi mumkin. Bu har bir davlatning boshqalardan farqli oʻlaroq, faqat oʻziga xos boʻlgan tarixiy rivojlanish yoʻliga, oʻz urf-odatlari va turmush tarziga ega ekanligi bilan belgilanadi. Biroq harbiy anʼanalarning xususiyati va ularning yoʻnalishi har doim ijtimoiy-siyosiy tuzumga bogʻliq boʻladi.Tarixga nazar soladigan boʻlsak, mamlakatimizning butun tarixi oʻzbek xalqini oʻz ozodligi va mustaqilligi uchun kurashlardan iborat boʻlib, xalqimizning yetuk, maʼrifatparvar ziyolilari, asl vatanparvar oʻgʻlonlari hamisha mustaqillik uchun, xalqimizning asriy orzularini roʻyobga chiqarish uchun kurashib kelganligi natijasida, ogʻir mehnat ichida, urush maydonlarida yuz yillar davomida Qurolli Kuchlar tarkibida harbiy anʼanalar paydo boʻlganligining guvohi boʻlamiz[2, 34]. Yozuvchi A.Platonov yozganidek, “Oʻz zobitini sevmagan askar – yetim, yetim esa – yomon askar. Zobit oʻzining haqiqiy insoniy va harbiy sifatlari bilan askarlarni

muhabbatiga loyiq boʻlishi kerak”[3, 87]. Harbiy urf-odat va an’analardan tarbiya jarayonida keng foydalanish mumkin. Chunki, urf-odat va an’analar orqali yetkaziladigan axborot doimo hayajonga soladigan va taassurot hosil qiladigan shaklga ega boʻladi, bu esa undan barcha bahramand boʻlishini ta’minlaydi, Vatanga boʻlgan muhabbatni va xizmatga boʻlgan ixlosni oshirish imkonini beradi.

**Xulosa**. Demak, harbiy urf-odat va marosimlar zamirida insonni shakllantirish jarayoni, milliy mentalitetga ega, hayotini oʻziga xos tarzda tashkil etuvchi muayyan toifadagi shaxsni kamol toptirish maqsadi yotadi. Oʻzbekiston ijtimoiy madaniyatida harbiy madaniyatning asosi boʻlgan an’analar harbiy nuqtai nazardan juda muhim oʻrin egallaydi. Harbiy madaniyatning mamlakat va millat mustaqilligida ham oʻrni beqiyos boʻlib, harbiy madaniyat jamiyat va mamlakatdagi har bir fuqaroning milliy hayot tarzi, davlatning qurolli himoyasini tashkillashtirishdagi oʻrnini kuchaytiradi. Harbiy madaniyat barcha davlat organlarining, jamoat tashkilotlarining, ommaviy ma’lumot markazlarining ishiga katta yordam beradi. Harbiylarning va xalqni vatanparvarlik ruhida tarbiyalaydi. Oʻzbekiston Yoshlar Ittifoqining asosiy vazifalari: barkamol, mustaqil fikrlaydigan, oʻzining hayotiy pozitsiyasi va qat’iy e’tiqodiga ega, mamlakatni isloh qilish, yangilash jarayonlarida hal qiluvchi kuch va tayanch boʻlishga qodir yoshlarni shakllantirish, ularning siyosiy madaniyati, huquqiy savodxonligi yuksaltirish, shuningdek, yoshlarni, xususan, uyushmagan yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan va harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda tarixiy xotira, milliy gʻurur va oʻzlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuygʻularini shakllantirish [5, 6] ekanligini koʻrsatib oʻtadigan boʻlsak, bugungi kunda jamiyatning harbiy madaniyatini oʻrganish, yoshlarni ma’naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashga, milliy gʻurur va oʻzlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat tuygʻularini yanada rivojlantirishga katta yordam beradi.

## Адабиётлар / Литература / References


1. Oʻzbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tizimida ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish Konsepsiyasi. – Toshkent: 2018 yil 4 avgust.
2. Harbiy ensiklopediya. 8 jild. – M.: Harbiy nashriyot, 2004. – B. 34.
3. Гребеньков В. Н. Тенденции эволюции военной культуры современного российского общества. – М.: Прогресс, 2006. – С. 87.
4. Inoyatov I.Yu. Harbiy xizmatning ma’naviy va huquqiy asoslari. – Toshkent: Oʻzbekiston, 2012. – B. 56.
5. Oʻzbekiston Respublikasi Yoshlar Ittifoqining asosiy vazifalari. – Toshkent: “Vatanparvar” gazetasi, 2017 yil 14 yanvar.
6. Исмойиловна, Ҳ. Г. (2020). ҲАРБИЙ АНЪАНАЛАР, УРФ–ОДАТЛАР ВА МАРОСИМЛАР-ЖАМИЯТ ҲАРБИЙ МАДАНИЯТИНИНГ НЕГИЗИ. *ПЕРЕКРЁСТОК КУЛЬТУРЫ*, *2*(3).
7. Ҳошимова, Г. И. (2020). ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРОЛЛИ КУЧЛАРИ ҲАРБИЙ МАДАНИЯТИНИНГ ТАРИХИЙ АСОСЛАРИ. *ВЗГЛЯД В ПРОШЛОЕ*, *3*(5).
8. Исмоиловна, Ҳ. Г. (2016). Фуқароларнинг ҳуқуқий маданиятни оширишда ҳуқуқийнашрларнинг ўрни ва роли. *Евразийский научный журнал*, (5), 145-149.

**ISSN:** 2181-1342 (Online)
**Сайт:** https://scienceproblems.uz
**DOI:** 10.47390/SP1342V3I12.1Y2023

# SCIENCEPROBLEMS.UZ

## ИЖТИМОИЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

*№ 12/1 (3) – 2023*

## АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

## ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

**Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари"** электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

**Муассис**: "SCIENCEPROBLEMS TEAM" масъулияти чекланган жамияти

**Таҳририят манзили:**

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

**Боғланиш учун телефонлар:**

(99) 602-09-84 (telegram).